

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA
FANLARARO HAMKORLIKNING USTUVOR JIHATLARI
ПРИОРИТЕТНЫЕ АСПЕКТЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В
РАЗВИТИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ
PRIORITY ASPECTS OF INTERDISCIPLINARY COOPERATION IN THE
DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN FUTURE PEDAGOGUES**

Abdujabborov Abduxalim Abdug'appor o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni shakllantirishda fanlararo hamkorlikning ustuvor jihatlari va rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan hamda tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье изучены и проанализированы приоритеты и перспективы развития междисциплинарного сотрудничества в формировании аналитического мышления у будущих педагогов.*

Abstract: *In the article, the priorities and development prospects of interdisciplinary cooperation in the formation of analytical thinking in future pedagogues were studied and analyzed.*

Kalit so'zlar: *analitik tafakkur, tarkibiy tuzilish, mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash, takomillashtirish, pedagog, fanlararo hamkorlik.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, структурная структура, логическое, критическое и аналитическое мышление, совершенствование, педагогика, междисциплинарное сотрудничество.*

Key words: *analytical thinking, structural structure, logical, critical and analytical thinking, improvement, pedagogy, interdisciplinary cooperation.*

KIRISH. Jahonda fanlararo hamkorlik asosida talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini o'stirish, intellektual salohiyatini oshirish, axborotlar bilan ishlash malakasini qaror toptirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurini rivojlantirish asosida o'rganilayotgan muammo yuzasidan aniq dalil bo'ladigan ko'p miqdordagi axborotlarni to'plab, masalaga turli tomondan yondashib, uning mayda jihatlari ham nazardan qochirmagan holda mavjud dalillarni tahlil qilish orqali eng to'g'ri yechimni tez va aniq topishga qaratilgan aqliy faoliyatni va fikrlash tarzini shakllantirish ustuvorlik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davob etmoqda. Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik

tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlarini, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish omillari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida bo'lajak kadrlarda tahliliy fikr yuritish san'atini o'stirish, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o'rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur izlanishlar asosida oliy pedagogik ta'limda bo'lajak kadrlarning fikrlash tarzini o'zgartirish, ularda ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo'yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o'tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo'llarini belgilash imkonini beradigan sarmahsul fikrlash shaklini rivojlantirish tizimini yaratish istiqoblari belgilanmoqda.

Mamlakatimizda ham "ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida mukammal ta'lim ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish"asosida mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash masalalari har doim dolzarb vazifalardan biri bo'lgan. Bugungi kunda ham bo'lajak pedagoglarni analitik tafakkurini rivojlantirish asosida axborotni analiz va sintez qilish, unga chuqur mushohadakorlik bilan yondashish, tanqidiy tahlil va mantiqiy muhokama qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'limda fanlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasini amalga oshirish orqali innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda, avvalo, o'z-o'zini tashkil etish, aqliy faoliyatning texnikasi va qoidalari to'g'risida xabardor bo'lishi talab etiladi. Talaba aqliy mehnatning mohiyatini yetarlicha aniqlik bilan tushunishi, hech bo'lmaganda uning asosiy usullaridan xabardor bo'lishi kerak. Agar uning aqliy faoliyatini tashkil etish istagi va qobiliyati bo'lmasa, u odatda, eng qulay moyilliklar va yaxshi sharoitlar bilan ham tafakkur rivojlanishining yuqori darajasiga erisha olmaydi. Aqliy faoliyat samaradorligini oshirish uchun konsepsiyaning afzalliklaridan foydalanib, vazifani belgilash, maqbul motivatsiya yaratish, birlashmalar yo'nalishini tartibga solish, ham majoziy, ham ramziy tarkibiy qismlarni maksimal darajada kiritish kabi fikrlash bosqichlarini boshqarish qobiliyatidan foydalanish mumkin. Fikrlash, shuningdek natijani baholashda keraksiz tanqidiylikni kamaytirish - bularning barchasi fikrlash jarayonini faollashtirishga, uni yanada samarali qilishga imkon beradi. Zero, analitik tafakkurni rivojlantirish uchun shunday mexanizm yaratish lozim bo'ladi. Materialni mantiqiy qayta ishlash qobiliyati ko'pincha o'spirinlarda o'z-o'zidan rivojlanadi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish bo'lajak pedagogning alohida vazifasi bo'lishi kerak.

Fikrlashning to'g'ri rivojlanishi uchun bo'lajak o'qituvchi har qanday imkoniyatdan foydalanadi – narsalar va hodisalarni tahlil qilish, taqqoslash va farqlash, o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashga o'rgatish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish va umumlashtirish.

Yaxlit pedagogik tizimning tarkibiy qismlari kabi uning funksional komponentlari o'zining muayyan texnologiyalariga ega. Muammoga texnologik yondashuv asosida o'quv jarayonining muhim masalalarini yechish, pedagogik tizimning muayyan qismlari, bosqichlari, pedagogik jarayonda bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlarga amal qilib va uni kuchaytirish, mazkur maqsadga bosqichma-bosqich erishish, shu tariqa bo'lajak o'qituvchining har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxsni shakllantirishga tayyor bo'lishi ta'minlanadi. Shu maqsadda talabalarga muntazam pedagogik ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi. Pedagogik jarayonda eng asosiy narsa bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga tayyor bo'lishlaridir. Buning uchun mazkur jarayonning maqsadi, mazmuni, shakllari va metodlari mutanosibligini ta'minlash lozim. Ularning analitik tafakkurini rivojlantirish jarayoniga mosligi, texnologik tizimda belgilangan imkonini berishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, tizimligi, bosqichlari, tamoyillari, asosiy qismlari, aniq-o'quv fani va ma'ruzalar mazmunini qamrab olishiga e'tibor beriladi. O'quv jarayonining ma'ruzadan keyingi qismlari bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlarini mustahkamlash, uning asosiy qismlarini takrorlash, ma'ruza asosida tashkil etilgan o'quv jarayonini yakunlashga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-ma'ruzalari jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratildi: o'quv jarayoni maqsadini aniqlash; o'quv jarayoniga nisbatan mayl hosil qilish; «talabalarining diqqatlari va idrok etishlarini faollashtirish; ma'ruza jarayoniga talabalarining ishtirokini kuchaytirish; talabalarga taqdim etilgan yangi o'quv materiallarini takrorlab, mustahkamlashlariga erishish, ma'ruzalarga yakun yasash; talabalarga mavzu bo'yicha topshiriqlar berish; ma'ruza materiallari yuzasidan zarur adabiyotlar va qo'shimcha manbalarni tavsiya etish kabilar».

Shuni alohida ta'kidlash joizki, aniq-o'quv birligi texnologiyasi, ma'ruza qilish, o'quv mayllarini hisobga olish, maqsadga yo'nalganlik, o'quv materiali mazmunini bayon etish, jadvallar va sxemalar yordamida ma'ruzalar mazmunini talabalarga aniqlashtirgan holda yetkazish, o'tilgan mavzuni umumlashtirish va mustahkamlash, darsga yakun yasash, talabalarga tavsiyalar, topshiriqlar berish, talabalar o'quv faoliyatlari va o'quv jarayonini tavsiflash, baho berish kabi qismlardan tashkil topadi. Ushbu o'quv birligi texnologiyasini modifikatsiyalashtirish natijasida bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda samarali natijalarga erishildi. Masalan, analitik tafakkurni rivojlantirishdada: bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga nisbatan ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy mayllari kuchaytirildi; analitik tafakkurni rivojlantirishda ilg'or o'qitish metodlaridan foydalanishlari, buning

uchun ularni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari va tahlil qila olishlari muhimligi uqtirilib bu sohada kafolatlangan natijalar qo'lga kiritildi. O'quv jarayoni oldiga maqsad qo'yish orqali talabalarning fanlararo hamkorlik imkoniyatlarini kengroq o'rganishga bo'lgan qiziqishlari kuchaytirildi, ularga egallashlari zarur bo'lgan bilimlar mazmuni, bo'lajak pedagog faoliyatining qiziqarli va murakkab jihatlari ochib berildi. Shu asosda ko'zlangan natijalar va bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyat maqsadlari belgilandi. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish jarayonining maqsadlarini belgilash orqali ko'zlangan natijaga erishish imkoniyatlari ochib berildi.

Аналитик тафаккур тарзи бўлажак педагоглардан янги ўзлаштирган илмий билимларини мавжуд билимлари билан таққослаб бориши, анализ ва синтез қилиш ва уйғунлаштиришлари талаб этилади. Бу эса уларда танқидий фикрлашни, ахборотларга мустақил ёндашувни шакллантиради ва изланувчанликни оширади. Натижада, уларнинг мустақил қарорлар қабул қилишга тайёрлик даражалари ортади. Уларда *мустақиллик*, масъулиятлилик, мулоқотга киришувчанлик, фаоллик, мақсадга интилувчанлик, ишчанлик, қийинчиликлардан қўрқмаслик сифатлари таркиб топади.

Analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash quyidagilarda namoyon bo'ladi: suhbatlar jarayonida ilmiy muammolarga yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash; ular bilan ilmiy hamkorlik qilish; kelajakda egallaydigan sohalari yuzasidan to'g'ri tanlovni amalga oshirishlariga ko'maklashish; ular ko'tarib chiqqan g'oyalarni ma'qullash, tahlil qilish, noto'g'ri jihatlarni asoslab ko'rsatish; bo'lajak pedagoglar tomonidan amalga oshirilgan kichik ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy ahamiyatini asoslashlarida ko'maklashish; bo'lajak pedagoglarga o'z qarorlari va qabul qilgan yechimlarini asoslashlari uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish; bo'lajak pedagoglar orasida vujudga kelgan ziddiyatlarni oqilona bartaraf etish kabilar. Aslida oliy ta'lim o'rganuvchisi analitik tafakkurning tarkibiy qismlari - analiz-sintez qilish, tanqidiy yondashuv, kreativlikni uzluksiz jarayonning oliy ta'lingacha bo'lgan davrida egallagan bo'lishi zarur.

XULOSA. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda tanqidiy va tahliliy ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega. Analitik tahlil – o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganishdan iborat. Bo'lajak pedagog voqea-hodisaning mohiyatini chuqur anglashi, u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning ichki tarkibiy qismlariga kirib borishi zarur. Bu esa to'rganilayotgan obektini alohida tarkibiy qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'ruza materiallarini bayon etishda hikoya qilish, so'zlab berish metodlaridan keng foydalaniladi. Buning uchun yorqin, mazmunli, talabalarning esida qoladigan, ko'rgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ma'ruza davomida talabalarni bahs-munozaraga chorlovchi savollar bilan qo'yilgan masalaning yechimini izlash, talabalarni bahslashishga tayyor bo'lishlarini

ta'minlash, tasviriy san'at asarlariga bo'lgan qiziqishlarini boyitish, ularda bu sohaga nisbatan yangi qiziqishlarni shakllantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Zero, ma'ruza jarayonida o'qituvchi barcha talabalarga birday e'tiborli bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зиновьев А. Высшее образование и логика интеллекта // Alma mater. 2004. № 5. С.11-13.
2. Кинелев В.Г. Университетское образование: его настоящее и будущее / В.Г. Кинелев // ZMagister. 1995. № 3. С. 1–9.
3. Коссов Б.Б. Обобщенность содержания высшего образования как фактор его развития (личностно-развивающее образование) / Б.Б. Коссов // Вопросы психологии. 1995. № 6. –С. 9–20.
4. Романов В. Интеллектуальные информационные системы в экономике. - М. : Экзамен, 2003. –С.494.
5. Семенов И.Н. Рефлексивный подход в формировании и развитии личностно-профессионального самосознания студентов как фактор модернизации высшего образования. Москва.:ФИРО, 2013. –С.57-59.
6. www.pedagog.uz
7. www.google.com